

TASAVVUF TA'LIMOTI XUSUSIDA

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

Alfraganus universiteti

ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

ORCID: 0009-0002-8931-1341

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limotining shakllanishi, mutasavvuf allomalarning asarlari xususida, tasavvuf ta'limotining o'ziga xos ma'no-mazmuni, tarixiy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, falsafa, tarix, sufiylik, mutasavvuf.

Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvuf ta'limoti va mutasavvuf allomalar yaratgan tasavvufiy asarlar kelajak avlod uchun milliy-tarixiy qadriyat, g'urur-iftixor, o'zlikni anglashning o'ziga xos omillaridan hisoblanadi. Tasavvufning barcha musulmon o'lkalarida, jumladan, Markaziy Osiyo hududida keng tarqalishining sababi uning har bir mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotiga xos xususiyatlariga hozirjavoblik bilan moslashuvi, rasmiy islomga nisbatan soddaligi va xalqchilligi bilan xarakterlanadi. Tasavvufning rivojlanishi va tarqalish jarayonida muayyan mahalliy xalqlarning urf-odatlarini, diniy marosimlari, milliy an'analariga tezkorlik bilan moslasha bordi va ularni o'zida uddaburronlik bilan aks ettira oldi¹.

IX-XII asr Uyg'onish davri, tarixiy makon va zamondan ancha ilgari ketgan, jahon va umuminsoniy qadriyatlar ilmiy paradigmasiga salmoqli hissa qo'shgan. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Vatanimiz necha yuz yillar mobaynida buyuk sivilizatsiya va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Qadimdan diyorimizda xalqimiz bilan birga turli millat vakillari yelkadosh,

¹ Ўзбекистон фалсафаси тарихи. – Т.: "Noshir", 2013. – 231 б.
www.pedagoglar.org

ahil va hamjihat bo'lib, tinch va osoyishta muhitda yashab keladilar. O'zbekistondagi bag'rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo'lib yashayotgan millat va elat vakillariga o'z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda"².

Mamlakatimiz olimlari tomonidan tasavvuf ta'limotini o'rganishda fanlararo yondashuv kuchli bo'lib, uni adabiyotshunoslar, tarixchilar, faylasuflar jamoasi turli nuqtayi nazaridan tadqiq etishmoqda. Xususan, XX asrning oxirlarida Najmiddin Komilov tomonidan "Tasavvuf" nomli kitob yozildi. Dastlab, "Komil inson axloqi" (1996-yil), keyin "Tavhid asrori" (1999-yil) nomli kitoblari nashr etilgan. N.Komilovning ko'p sonli xulosalariga ko'ra, tasavvuf haqiqiy ma'noda insonparvar ta'limot hisoblanadi. Insonning kamoloti, ruhiy-ma'naviy yuksalishi uchun qayg'urib kelgan gumanistik ta'limotlar rivojiga bizning vatandoshlarimizning hissasi beqiyos³. Voqean, tasavvuf g'oyalari bir butunlikni tashkil etadigan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir. Din, falsafa, adabiyot, san'at va hokazo - bularning hammasi shu muazzam daraxtning shoxlari bo'lib, uning ildizi xalqning ijodi, dunyoqarashi va fikriy kashfiyotlaridir. Inson butun ongli tarixi davomida o'zini izladi, o'rgandi, bu yo'lda yuzlab asotirlar, ideal qahramonlar, nazariya va ta'limotlarni yaratdi. Bularning ko'pi tasavvufga kelib qo'shilgan va qayta hayot topgan⁴.

"Tasavvufda bizni qiziqtirayotgan narsa uning mohiyati va haqiqati, xalq qalbidan joy olgan insonparvarlik g'oyalari, ulug' adiblarga ilhom bergan Soflik, Haqiqat, Go'zallik, Kamolot ideali, shu ideallarga bo'lgan cheksiz muhabbatdir. Hazrat Navoiy ta'riflaganday, tasavvuf xilofu ixtilofi bo'lmagan, riyo va manmanlik, da'vo-yu tamani inkor etadigan bir ulug' ta'limotkim, u inson ziynati, tiynatini poklovchi obihayotdir"⁵.

Falsafa tarixida qabul qilingan xronologik yoki davrlashtirish metodologiyasini tasavvufning genezisi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlariga

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: О'zbekiston, 2021. – 35 б.

³ КОМИЛОВ Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr, O'zbekiston. 2009. – 4 б.

⁴ КОМИЛОВ Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr, O'zbekiston. 2009. – 5 б.

⁵ КОМИЛОВ Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr, O'zbekiston. 2009. – 20 б.

ham tadbiiq etish o'rinlidir. Tasavvufning rivojlanish davrlarini uchga bo'lish mumkin:

1-davr, VII-IX asrlarni qamrab oladi va tasavvufning paydo bo'lish, shakllanish va yoyilish davri, deb yuritiladi. 2-davr, X-XI asrlarni qamrab oladi hamda tasavvuf va islomning uyg'unligi davri deb, nomlanadi. 3-davr, XII-XV asrlar tasavvuf tariqatlarining paydo bo'lishi va tasavvufning ommalashuv davridir⁶. Bu uslubiyatda tasavvufning ilmiy, diniy, falsafiy tarkibi shakllanadi.

Ilmiy izlanishlar sufiylik, zohidlik, oriflik, uzlatga ketish, faqru fanoni dunyo farovonligidan afzal bilish, darveshchilik, qalandarlik, kambag'allikni ezgu ne'mat deb hisoblash kabi ma'naviy-ruhiy an'analar hali islomgacha ham ming yillar yashab kelganligini tasdiqlamoqda. Shu bilan birgalikda tasavvuf miloddan avvalgi II, milodiy IV-VI asrlarda turkiy-buddizm sivilizatsiyasi an'anasi sifatida o'zini kuchli oqim sifatida namoyon qila olgan edi⁷.

Sufiyona faoliyat arablar hududidan keyinchalik Basradan 762 yilda Mansur tomonidan barpo etilgan va xalifalikning siyosiy va diniy poytaxti deb e'lon qilingan Bag'dodga ko'chgan. Bag'dodning eng yirik sufiylari qatorida Ma'ruf Karxiy (vaf.199/815), Mansur ibn Alisher (vaf. 224/839), Bishr ibn Xofiy (vaf. 227/842) va Junayid (vaf. 297/910), Ibn Abi ad-Dunyo (vaf. 281/894), Mahosibiy (vaf. 243/857)lar bo'lishgan. Ularning tasavvufiy-falsafiy qarashlari xorijiy tadqiqotlarda yetarli darajada tadqiq etilgan.

Markaziy Osiyoda tasavvuf ta'limoti va tariqatlarida ilgari surilgan badiiy-estetik, ma'naviy-madaniy, axloqiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlar o'z davrida ham, hozirgi kunda ham yoshlarni ma'naviy yuksalishida, axloqiy tarbiyalashda muhim o'rinni egallaydi. Tasavvuf mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan inson axloqiyliigi to'g'risidagi qarashlar tarixda oila tarbiyasi, millatning ma'naviyati, axloqiy prinsiplari shakllanishida metodologik resurs funksiyasini bajargan. Aytish mumkinki, falsafa tarixida tasavvufiy tafakkurning, ayniqsa Markaziy Osiyo

⁶ Шарқ фалсафасининг замонавий йўналишлари. Монография. – Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2021. – 21 б.

⁷ Шарқ фалсафасининг замонавий йўналишлари. Монография. – Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. - 190 б.

mutafakkir allomalarining alohida o'rni mavjud. Ular o'z qarashlarining ko'pma'noli, irfoniy, ziddiyatli jihatlari bilan olam, borliq va inson ma'naviy borlig'ining immanent xususiyatlarini yorqin aks ettiradi.

Tasavvuf ta'limotining IX asrning oxirlaridan shakllangan bo'lganligi ta'kidlansada, faylasuflar tasavvuf g'oya va nazariyalarining undan oldingi davrlarda ham (ham g'arbda, ham sharqda) mavjud bo'lganligini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, Sharqda tasavvufiy tafakkur tarzi (dunyoqarash, g'oya va nazariyalar) olam, borliq va inson muammolarini o'rganib ta'limot sifatida paradigmal darajaga yetadi, murakkablashadi, ko'pma'noli mohiyatga ega bo'lib boradi⁸.

Tasavvuf kishi qalbidagi yomon, hunuk sifatlardan xalos bo'lish choralarini o'rgatuvchi, qalbdagi ezgu sifatlarni va ularni qo'lga kiritish yo'llarini ko'rsatuvchi, ma'naviy martabalarni bosib o'tib, eng yuksak martaba bo'lishi "komil inson" maqomiga erishmoq qoidalarini o'rgatuvchi va nihoyat, tavhid sirlarini bayon etuvchi bir ilmdir⁹.

Zamonaviy tasavvuf allomalar fikrlaricha: tasavvuf birinchidan, "ilohiy", "oliy", "samoviy" ilm bo'lib, u bitmas-tuganmasdir, ikkinchidan, qalbiy hayotga tegishli bo'lib, inson bu ma'noda qobiliyati va iste'dodi bilan birga, majburiyat sohibi hamdir. Banda o'z xotirjamligi uchun bu ilmga bo'lgan iste'dodini taraqqiy ettirishga majburdir. Bu esa nafs tarbiyasi va ruhni quvvatlantirish orqali bo'ladi¹⁰.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, tasavvuf ta'limoti va falsafasini o'rganishga bugungi kunda e'tibor katta, ular milliy qadriyat, ma'naviy meros sifatida mamlakatimiz olimlarining ilmiy izlanishlarida sezilarli darajada salohiyatli ekanligini ko'rsatmoqda.

G'arb va sharq olimlari tasavvufning tarixiy-falsafiy, badiiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, diniy, ijtimoiy jihatlari o'z e'tiborlarini qaratgan, shunga qaramasdan, tasavvufni turli yondashuvlarga asoslangan holda tadqiq etish

⁸ Турсункулова С. Туйчиевна (2021). РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ СЛОЖНОСТИ В ДОКТРИНЕ МИСТИЦИЗМА. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 3(1), 1-6. Извлечено из <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/814>

⁹ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиклол, 1999. – 180 б.

¹⁰ Усмон Нурий Тўпбош. Бир кўза сув. – М.: Издательская группа «САД», 2010. – 172 б.
www.pedagoglar.org

tasavvufning mohiyatini chuqurroq anglashga imkoniyat beradi, uning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, qadriyatli tomonlarini ochib beradi. Shu sababli, tasavvuf ta'limoti va falsafasi aks etgan muhim manbalar tahliligiga ko'ra, tasavvuf falsafasida "go'zallik" kategoriyasini alohida obyekt sifatida tadqiq etish ham dolzarbdir¹¹.

Tasavvuf allomalari yaratgan asarlar, ularning falsafiy qarashlari o'z davri ilm-fani uchun munosib hissa qo'shgan, ularning qalamiga mansub asarlar bugungi kunda ham ahamiyati katta. Biroq ular diniy mazmuni sababli o'tgan asrimizda chuqur o'rganilmagan, ammo adabiyot sohasida badiiy asar sifatida, she'riyati ko'proq o'rganilgan. Uning fundamental tomonlari e'tibordan chetda qoldirilgan. Albatta biz bugungi kunda uni qadriyatli, falsafiy jihatlarini ham atroflicha o'rganmoqdamiz. Ammo tasavvufiy g'oyalar o'z davrida juda ahamiyatli bo'lgan. Komil inson konsepsiyasi asosiy mazmunini tashkil etgan tasavvufiy tafakkur tarzida inson muammolari allomalarning asarlarida tizimlashtirilgan, ularni yechimiga oid uslubiyat ham shakllantirilgan. Zero, ayni paytda IX-XV asrlarda Movarounnahrda tasavvuf allomalari yozib qoldirgan asarlar jahon ilm-fanida birinchidan, ilmiy tadqiqot ishi sifatida, ikkinchidan, o'sha davr manbalarini tarjima qilish usulida, uchinchidan, asarlardan noyob nusxalar sifatida foydalanish natijasida tadqiq etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo tasavvufiy tafakkurida islom dini, hadislar va sha'riyat qoidalari, avliyolik darajalariga erishgan insonlarning ibratli hayotlari va ularning pand nasihatlari, yaratgan ta'limotlari bilan qadriyatli ahamiyat kasb etgan. Voqelikni anglash, uning sir-asrorlarini tushunish hamda ularga javob berishi, insonni botiniy va zohiriy olamini bilishga urinishi bilan gnoseologik tomonlarini namoyon etadi. "Komil inson", "ustoz-shogird" konsepsiyalarini yaratilishi bilan ahloqiylik va vorisiylik jihatlarini shakllangan.

¹¹ Турсункулова, Ш. (2023). ТАСАВВУФ ФАЛСАФАСИДА ГО'ЗАЛЛИКНИНГ ИММАНЕНТ ЖИНАТЛАРИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/8). www.pedagoglar.org

Adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: О‘zbekiston, 2021. – 467 б.
2. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr, О‘zbekiston. 2009.
3. Усмон Нурий Тўпбош. Бир кўза сув. – М.: Издательская группа «САД», 2010. – 172 б.
4. Ўзбекистон фалсафаси тарихи. – Т.: “Noshir”, 2013. – 231 б.
5. Шарқ фалсафасининг замонавий йўналишлари. Монография. – Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2021. – 190 б.
6. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. – 180 б.
7. Турсункулова, Ш. (2023). TASAVVUF FALSAFASIDA GO‘ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/8).
8. Турсункулова С. Туйчиевна (2021). РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ СЛОЖНОСТИ В ДОКТРИНЕ МИСТИЦИЗМА. FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 3(1), 1-6. Извлечено из <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/814>